

**Sobirova Dilfuzaxon***O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**Farg`ona akademik litseyi o`qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5878117>

## **CHEZ TILLARINI O`QITISHDA INNOVATION USLUBLAR VA TEXNOLOGIYALAR**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada chet tillarini o`qitishda kompyuter texnologiyalari va innovatsion uslublar to`g`risidagi ilmiy izlanishlar bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** kompyuter texnologiyalari, innovatsiya, masofaviy ta`lim.

Bugungi kunda yuqori kasbiy malakaning asosiy talablaridan biri chet tillarini mukammal bilish bo`lib qoldi. Xalqaro muloqot tillar o`rtasida yetakchi o`rinni egallab kelayotgan Rus tilini o`rganishga alohida e`tibor berilayotgani ham beziz emas. O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimida Rus tili o`qitish, o`rgatish ilmiy yondashuv asosida, davr talablariga to`la javob bera oladigan yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar joriy etilishi asosida yangi sifat darajasiga ko`tarilib bormoqda.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch» nomli asarlarida ta`kidlanganlaridek: «Agar O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiyligi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo`lsak, avvalambor bo`lajak buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak».

Demak, kasb-hunar kollejlarida Rus tilida qo`shimcha matnlar o`qitish texnologiyasini ishlab chiqish va shu maqsadda kasbiy dasturlarni tuzish tamoyillarini amalga oshirishda, chet tillarni chuqur o`rganishga qaratilgan har bir ilmiy izlanishlarga alohida e`tibor zarur bo`ladi. Bu modellashtirilayotgan dasturda konseptual asosni oldindan belgilab olish demakdir. O`rta maxsus ta`lim tizimiga Rus tilida kasbiy qo`shimcha matnlar o`qitish texnologiyasiga ham yuqorida qayd etilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish masalalarining bir qirrasi deb qarash mumkin. Mutaxassislar tayyorlash jarayonlarida ta`lim tizimi ustuvorligini, jumladan, chet tillar o`qitish yangi yangi texnologiya-mexanizmlarini joriy qilishni ta`minlash muhim ahamiyat kash etadi. Ma`lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o`rtasidagi aloqa, ma`naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo`ladi.

Bunday texnologiyalar ta`lim tizimida o`z aksini topishi chet tili o`qitish saviyasini o`stiradi. Chet tilida, jumladan, Rus tilida mutoala qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Akademik litseylarning har bir kasbiy yo`nalishi bo`yicha, shuningdek,



Rus tilini mukammal o'zlashtirganlarga istiqboldagi ehtiyojlarni belgilash bo'yicha tarmoqlar metodikasini yaratishimiz (bular Klassifikator, malakali tavsiflar va Davlat ta'lim standartiga muvofiq amalga oshiriladi) lozim.

Ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligi, uzlucksiz ta'lim tizimida Rus tilini o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda izchillikni ta'minlash bunda samarali shakllar va usullarni, yangi qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasi metodikasini joriy etish va shu kabi boshqa ilg'or ta'lim uslublaridan keng foydalanish ijobjiy natijalar garovidir.

Akademik litseylarda mutaxassislar tayyorlanayotgan soha yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, Rus tili o'qitish jarayonida qo'shimcha matnlar texnologiyasini qo'llash bo'lajak mutaxassislarni til o'rganish imkoniyatlarini oshiradi. Bunda muqobililik usullaridan ham foydalanish mumkin, ya'ni boshqa davlatlarning ta'lim tizimidagi muqobil uslublarini qabul qilish yo'li bilan o'quvchi, talabalarga bo'lgan talabni qondirish, bashoratlashga yuqorida qayd etilgan barcha yondashuvlardan turli kombinatsiyalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chet tilida munosabatlар shartlari nutq, qo'shimcha kasbiy matnlar o'rganishning ko'plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko'rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamshitmagan holda, ayniqsa, Rus tilida muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaq qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Metodist olimlarimiz, ta'kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa, o'z fikr-mulohazalarini ham suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, o'quvchini lug'at boyligini ortishiga Rus tilida to'g'ri fikrlashga yordam beradi. Bunday ushubdan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanilsa, o'zlashtirish bo'yicha ham, o'qitish muddatlari bo'yicha ham, Rus tilini mukammal o'rganishda ham ijobjiy natjalarga erishishga imkon yaratiladi. Ayniqsa, Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida Rossiyada ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish nafaqat chet tillarini o'qitishni tashkil etishdagi innovatsion jarayonlar bilan bog'liq. Zamonaviy maktab rivojlanishining ustuvor yo'nalishi ta'limning insonparvarlik yo'nalishiga aylandi. Bunda shaxsiy salohiyat (tamoyil) yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'quvchining ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olishni, ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bugun asosiy e'tibor talaba, uning shaxsiyati, o'ziga xos ichki dunyosiga qaratilgan. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchining asosiy maqsadi - o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etishning shaxsni rivojlantirish maqsadiga optimal darajada mos keladigan usullari va shakllarini tanlash. So'nggi yillarda maktablarda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda. Bular nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakl va



usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondashuvdir. Chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlanadirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchining tilni amaliy o'zlashtirishi uchun shart-sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyon etish imkonini beradigan o'qitish usullarini tanlashdan iborat. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida talabaning bilim faolligini oshirishdir.

2019- yilda paydo bo`lgan Covid-2019 hozirgi kunda masofaviy ta`limni yanada rivoj topishiga turki bo`ldi. Kasallik tufayli dars mashg`ulotlari, ayrim ish faoliyatlarining ko`plab turlari, hatto til kurslari ham masofaviy jarayonda kecha boshladи. Bu esa o`z navbatida vaqtning tejalishi va menat unumdorligini oshirilishiga olib keldi. Masofaviy ta`lim hozirda ham keng tarqalib, rivojlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson tillarni inovatsion uslublardan foydalanan ekan, o`z faoliyatlarida unum va rivojlanishda yuqori natijalarga erisha oladi. Zero aytishganidek, bir tilni bilgan kishi- bir inson, yana bir tilni bilgan kishi esa yana bir insondir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [WWW.Arxiv.uz](http://WWW.Arxiv.uz)
2. <https://books.google.co.uz/books?id=spRMDwAAQBAJ&printsec=frontcover&dq=CHET+TILLARINI+O%60QITISHDA+KOMPYUTER+TEXNOLOGIYALARI+VA+INNOVATSION+USLUBLAR&hl=ru&sa=X&ved=2ahUKEwiWI5rRp7T1AhXWRvEDHdk5BEYQ6AF6BAGGEAI#v=onepage&q&f=false>
3. <http://uz.infocom.uz/2009/03/11/chet-tillarini-axborot-texnologiyalari-vositasida-samarali-organish/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-talim-texnologiyalarining-roli>